

1-DARS. TADBIRKORLIK KO'NIKMA: TASHABBUSKORLIK VA MAS'ULIYAT

1. Kirish: nega tadbirkorlik ko'nikmani o'rgatish kerak?

Zamonaviy dunyoda tadbirkorlik ko'nikma (entrepreneurial mindset) tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik va kommunikativ kompetensiyalar bilan bir qatorda XXI asrning asosiy ko'nikmalaridan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik ko'nikmalari nafaqat biznes ochish uchun, balki muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat, ijtimoiy faollik va shaxsiy rivojlanish uchun ham zarurdir.

O'quvchilar uchun bu ayniqsa muhim, chunki aynan maktab yillarida insonda barqaror xulq-atvor modellari shakllanadi — ya'ni kimdir ko'rsatmalarni kutishga moyil bo'ladi, boshqasi esa mustaqil yechim izlaydi; kimdir xatolardan qo'rqadi, boshqasi esa ularni qimmatli tajriba sifatida qabul qiladi.

O'qituvchining vazifasi ongimizdagi cheklovchi stereotiplarni bartaraf etish, tadbirkorlik — bu faqat pul topish emas, balki hayotga faol munosabat ekanligini yetkazishdir.

2. Tadbirkorlik ko'nikmai tushunchasi

Ilmiy adabiyotlarda **tadbirkorlik ko'nikma** ko'p qirrali tushuncha sifatida talqin qilinadi va uning mazmuni tadqiqot yondashuviga qarab farqlanadi. **Psixologik yondashuv** e'tiborni shaxsning individual xususiyatlariga qaratadi, tadbirkorlik ko'nikmani kreativlik, asosli tavakkalchilikka tayyorlik, tashabbuskorlik hamda o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyati kabi sifatning majmui sifatida tavsiflaydi. **Xulq-atvor yondashuvi** esa buning aksi, harakatlarga urg'u beradi: bu yondashuvga ko'ra, tadbirkor atrofda imkoniyatlarni nafaqat ilg'ay oladigan, balki ularni aniq natijalarga aylantira oladigan, ya'ni faol harakatlar va g'oyalarni amaliyotga joriy etish orqali natijaga erisha oladigan shaxsdir. **Ijtimoiy yondashuv** esa tadbirkorlik faoliyatining jamiyat uchun foydali jihatlariga alohida e'tibor beradi. Unga ko'ra, tadbirkorlik ko'nikma — bu nafaqat shaxsiy manfaat, balki boshqalar va jamoalar uchun ham foyda ham qadriyat yaratish qobiliyatidir.

Shu tariqa, **tadbirkorlik ko'nikma** tadbirkorni faqat biznes egasi sifatida talqin qiluvchi an'anaviy tushunchadan ancha kengroqdir. U turli kontekstlarda

namoyon bo‘lishi mumkin: masalan, o‘quv topshirig‘iga innovatsion yechim topgan o‘quvchi, chiqindilarni ajratib yig‘ish bo‘yicha ekologik loyiha boshlagan o‘quvchi qiz, yoki tengdoshlar uchun ta‘limiy blog yaratgan yuqori sinf o‘quvchisi. Bu holatlarning barchasida **imkoniyatlarni ko‘ra bilish**, ularni amalga oshirish uchun **mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish** va shaxsiy, ta‘limiy yoki ijtimoiy **qadriyat yaratish** qobiliyati namoyon bo‘ladi. Aynan shu sababli, **tadbirkorlik ko‘nikmani** XXI asrning **universal kompetensiyasi** sifatida ko‘rish kerak — u nafaqat biznes sohasida, balki hayotning turli jabhalarida **shaxsning o‘zini muvaffaqiyatli namoyon qilishi** uchun ham zarurdir.

3. Tadbirkorlik ko‘nikmaning asosiy kompetensiyalari

Hozirgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik ko‘nikma shaxsning alohida sifati emas, balki o‘quvchilarda tashabbuskor, mustaqil va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini shakllantiruvchi o‘zaro bog‘langan kompetensiyalar majmuidir.

Tashabbuskorlik tashqi bosimlarsiz, ichki motivatsiya va o‘z g‘oyalarini ro‘yobga chiqarish ehtiyojidan kelib chiqib faoliyatni boshlashga tayyorlik sifatida talqin etiladi. Maktab o‘quvchilari misolida bu maktabda tadbir o‘tkazishni taklif qilish, maktab gazetasi uchun yangi dizayn yaratish yoki ko‘ngillilar aksiyasini tashkil etish kabi ishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Tashabbuskorlik ma‘lum darajada jasorat va tanqidni qabul qilishga tayyorlikni talab qiladi. Shu bois o‘qituvchining vazifasi – ta‘lim jarayonida yangi g‘oyalar konstruktiv qabul qilinadigan va qo‘llab-quvvatlanadigan, xatolar esa muvaffaqiyatsizlik belgisi emas, balki o‘qish jarayonining tabiiy bosqichi sifatida qaraladigan muhit yaratishdir.

Mas’uliyat boshlagan ishni oxirigacha yetkazish, o‘z xatolarini tan olish va ularni tuzatish yo‘llarini topa olish ko‘nikmasida namoyon bo‘ladi. Maktab amaliyotida bu rejalashtirilgan muddatga konsert tayyorlash, jamoaviy loyihada o‘z vazifasini bajarish yoki xatoni ongli ravishda tan olib, uni tuzatishning aniq yo‘lini taklif qilish orqali ifodalanishi mumkin. Shu tariqa, mas’uliyat nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy tushunchaga aylanadi va jamoada ishonchni mustahkamlaydi.

Rejalashtirish va resurslarni boshqarish vaqt, moliyaviy mablag‘lar, e’tibor va energiyani ustuvorliklarga muvofiq taqsimlash qobiliyatini nazarda tutadi. O‘quvchilar uchun bu o‘quv yuklamalarini hobbi va dam olish bilan uyg‘unlashtira olish, cho‘ntak pullaridan oqilona foydalanish, shuningdek, samaradorlikni saqlash

imkonini beradigan kun tartibini tuza olishni anglatadi. Vaqtni boshqarish (taym-menejment) bo'yicha amaliyotlarini ustuvor vazifalar ajratib ko'rsatilgan haftalik reja tuzish topshirig'i ko'rinishida ta'lim jarayoniga integratsiya qilish mumkin.

Jamoadi ishlash XXI asrda deyarli barcha sohalarida talab etiladigan asosiy ko'nikmalardan biriga aylanmoqda. Maktab muhitida samarali amaliyot sifatida ishtirokchilar o'rtasida rollarni taqsimlashni (lider, analitik, dizayner, spiker) nazarda tutuvchi topshiriqlarni qo'llash mumkin. Bunday faoliyatni tashkil etish o'zaro hamkorlik qilish, tinglash, muloqot olib borish va jamoaviy natijaga erishish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kreativlik va tanqidiy tafakkur nafaqat yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatini, balki ularning amalga oshirilish imkoniyati, qo'llanishi va aniq kontekstdagi qiymatini baholay olishni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar uchun bu standart yechimlardan tashqariga chiqish qobiliyatini rivojlantirish bilan birga, taklif etilgan tashabbuslarni baholashda ratsional yondashuvni saqlab qolishni anglatadi.

Shu tariqa, **tadbirkorlik ko'nikma** shaxsiy, kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarni o'zida mujassamlashtirgan integrativ sifat deb qaralishi lozim, bu kompetensiyalar maktab muhitida shakllanib, shaxsning tez o'zgaruvchan dunyo sharoitida o'zini muvaffaqiyatli namoyon qilishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

4. Maqsad qo'yish: SMART tizimi

Tashabbusni natijaga aylanishi uchun maqsadlar shunday shakllantirilishi kerakki, ularni rejalashtirish, bajarish va tekshirish mumkin bo'lsin. Amaliy yondashuvlardan biri — **SMART** metodi bo'lib, bunda maqsad **aniq, o'lchanadigan, erishish mumkin bo'lgan, dolzarb va vaqt bilan chegaralangan** bo'lishi lozim. **Aniqlik** — “aniq nima va kim uchun qilamiz?” degan savolga javob beradi. **O'lchanadigan** — “natijaga erishganimizni qanday bilamiz?” (ishtirokchilar soni, tayyor mahsulot, o'tkazilgan tadbir va boshqalar) degan savolga javob beradi. **Erishish mumkinligi** — maqsadni mavjud resurslar va tajriba bilan solishtiradi. **Dolzarlilik** — maqsadni sinf, maktab yoki shaxsiy rivojlanishga doir kengroq vazifalari bilan bog'laydi. **Vaqt chegarasi** — aniq muddatni va oraliq bosqichlarni belgilaydi.

Ta'lim jarayonida maqsadni bitta jumlada ifodalash lozim: ma'lum bir sanagacha biz (yoki men) mana shu ishni mana bu auditoriya uchun amalga

oshiramiz; muvaffaqiyat mezoni sifatida mana shu natijani olamiz; bizga mana bunday resurslar va ko‘mak kerak bo‘ladi; agar nimadir reja bo‘yicha ketmasa, zaxira senariy mavjud.

Maqsadni belgilagandan so‘ng u bosqichma-bosqich “daraxt” ko‘rinishidagi maqsad — vazifalar — amaliy harakatlarga ajratiladi. Odatda ikki-uchta vazifa yetarli bo‘lib, ularning har biri aniq qadamlar majmuasiga aylantiriladi: nima, qayerda, qachon va kim bilan qilinadi. Shu bosqichda zarur resurslar ham qayd etiladi: vaqt, xona yoki maydon, materiallar, kichik byudjet (zarur bo‘lsa), kattalar va sinfdoshlar yordami. Muddatlarni qisqa kalendar shaklida belgilash maqsadga muvofiq: masalan, juma kuniga qadar — afisha maketi, keyingi chorshanbagacha — repetitsiya, tadbirdan ikki kun oldin — jihozlarni tekshirish. Muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari har bir vazifaga- bajarilgan elementlar, ishtirokchilar soni, yakuniy mahsulot sifatiga bog‘lanadi. Har bir vazifa uchun mas’ul shaxs belgilanadi va favqulodda holat uchun zaxira rejasi ishlab chiqiladi.

Xavflarni oldindan tahlil qilish — mas’uliyatning muhim qismidir. O‘zimizga oldindan savol berish lozim: nima to‘sqinlik qilishi mumkin (ob-havo, zalning band bo‘lishi, ishtirokchining betob bo‘lib qolishi), bunday holatda nima qilamiz (zaxira sana yoki maydon, rol o‘ynashga dublyor, onlayn o‘tkazish), nimalarni oldindan ogohlantiramiz (yozma kelishuvlar, muqobil aloqa vositalari). Bunday qo‘shimcha “B rejasi” ortiqcha asabiylikni kamaytiradi hamda kutilmagan holatlarga qaramay ish sur‘atini saqlab qolishga yordam beradi.

Maqsad “yashashi” uchun sodda nazorat tizimi joriy qilinadi: haftasiga bir marta nimalar bajarildi, nima sekinlashdi, nimani o‘zgartirish kerakligini o‘n daqiqa qayta ko‘rib chiqiladi. Qisqa mini-hisobotda quyidagilar qayd etiladi: qancha ish rejalashtirilgan, qancha ish bajarilgan, nima sababga ko‘ra qaysi ish ko‘chirilmoqda. Sikl yakunida refleksiya foydali bo‘ladi: nimalarni o‘rgandik, keyingi loyihada qaysi yechimlarni saqlab qolamiz, nimani tuzatamiz. Ushbu sikl mas’uliyatni oshiradi, o‘sishni ko‘rishga imkon beradi.

5. Salbiy fikrlar bilan ishlash

Ko‘plab mamlakatlarning ijtimoiy-madaniy an‘analarida pul va tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq barqaror stereotiplar hamda mifologemalar chuqur ildiz otgan. Ular orasida yirik moliyaviy resurslarni faqatgina nohalol yo‘l bilan qo‘lga kiritish mumkinligi, muvaffaqiyatga intilish kamtarlik me‘yorlariga zid ekani yoki iqtisodiy

hamda ijtimoiy sohada qaror qabul qilish faqat tanish-bilishlar orqali amalga oshishi haqidagi tasavvurlar ham uchraydi. Bunday qarashlar o‘quvchilarda iqtisodiy haqiqatning buzilgan tasvirini shakllantirib, ularning tashabbuskorlik va mas’uliyatga asoslangan harakatlarga bo‘lgan motivatsiyasini pasaytiradi.

Shu munosabat bilan pedagogning roli muhim bo‘lib, u o‘quvchilarda halollik, mustaqillik va ijtimoiy mas’uliyat qadriyatlariga asoslangan muqobil qarashlarni shakllantirishga ko‘maklasha oladi. Muhim jihati shundaki, halollik va muvaffaqiyat o‘zaro zid tushunchalar emasligi, moliyaviy mustaqillik hayotiy strategiyalarni erkin tanlash imkonini berishi hamda tadbirkorlik faqat biznes sohasida emas, balki ta’lim jarayonida, ijodiy loyihalarda yoki ijtimoiy faollikda ham namoyon bo‘lishi mumkinligini yetkazib borish lozim. Bunday salbiy qarashlar bilan ishlash jarayoni o‘quvchilarda moliyaviy madaniyat va tadbirkorlik ko‘nikmaga nisbatan yanada realistik va konstruktiv munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Salbiy qarash va uning ijobiy muqobili

«Katta pul – bu halol bo‘lmagan pul»	Muvaffaqiyat va halollik bir-biriga zid emas: barqaror natijaga bilim, mehnat va innovatsiyalar orqali erishiladi.
«Muvaffaqiyatli bo‘lgandan ko‘ra kamtar bo‘ish kerak»	Kamtarlik va muvaffaqiyat ham o‘zaro zid tushunchalar emas: shaxsiy yutuqlar namunaga aylanishi hamda jamiyatga foyda keltirishi mumkin.
«Barcha ishlar faqat tanish-bilish bilan bitadi»	Sifatli g‘oyalar va kompetentlik tanish-bilishdan kam baholanmaydi, zamonaviy dunyoda esa shaffof tanlovlar va grantlar roli ortib bormoqda.
«Tadbirkorlik-bu faqat biznes degani»	Tadbirkorlik ko‘nikma fan sohasida, o‘quv loyihalarida va ijtimoiy faollikda ham namoyon bo‘ladi.
«Xato qilish -uyat»	Xato — o‘qish jarayonining tabiiy bosqichi va tajriba manbai bo‘lib, uningsiz rivojlanish mumkin emas.
«Moliyaviy erkinlikka erishib bo‘lmaydi»	Moliyaviy savodxonlik va resurslarni bosqichma-bosqich jamg‘arish kelajakda erkin tanlov va ishonchni ta’minlaydi.

Xalqaro amaliyotlar va misollar

Tadbirkorlik ko'nikma eng samarali tarzda amaliy faoliyat orqali va o'quvchilarning o'z mehnati natijalari uchun haqiqiy mas'uliyatni qabul qilishi jarayonida shakllanishini quyidagi misollarda ko'ramiz:

- Finlyandiya yuqori sinf o'quvchilari ijtimoiy startaplar ishlab chiqadilar, bunda pedagoglar tomonidan baholash jarayonida faqat yakuniy natijaga emas, balki loyiha faoliyatining bosqichlariga ham e'tibor qaratiladi.

- AQShda Junior Achievement dasturi doirasida o'quvchilar mini-kompaniyalar tashkil etib, mahsulot ishlab chiqaradilar va olingan foyda bo'yicha hisobot taqdim etadilar, shu orqali tadbirkorlik va moliyaviy hisobot yuritish asoslarini o'zlashtiradilar.

- O'zbekistonda IT Park xakatonlar tashkil etmoqdi, unda o'quvchilar va talabalar shahar muhiti uchun dolzarb vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan texnologik yechimlar ishlab chiqadilar.

6. Xato – muvaffaqiyat kaliti

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion tadbirkorlik va startaplar sohasida dastlabki g'oyalar va loyihalarning katta qismi kutilgan natijaga erishmaydi, taxminan 80% startaplar esa ilk bosqichlarda muvaffaqiyatsizlikka duch keladi. Shu bilan birga, aynan mana shunday muvaffaqiyatsizliklar tajriba to'plash, professional kompetensiyalarni shakllantirish va tavakkalchilikka bardoshlilikni rivojlantirishning muhim manbaiga aylanadi. Xato mag'lubiyat belgisi bo'lishdan to'xtaydi va muvaffaqiyat yo'lidagi tabiiy bosqichga aylanadi, chunki u kuchsiz jihatlarni aniqlash, strategiyani qayta ko'rib chiqish va yanada hayotiy yechimga yaqinlashish imkonini beradi.

Bunga *SpaceX* kompaniyasi yaqqol misol bo'la oladi: u kosmik sanoatning jahon yetakchisiga aylanishidan oldin uch marta raketa uchirishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Xuddi shunday holat **Airbnb** bilan ham yuz bergan: dastlab ularning g'oyasini jiddiy qabul qilmaganlar, investorlar topilmagan, natijada asoschilar shunchaki yashab qolish maqsadida nonushta uchun mo'ljallangan yormalar sotishga majbur bo'lishgan. Bugungi kunda kompaniya milliardlab dollarga baholanadi. Yana bir misol — **YouTube**: u dastlab video formatdagi tanishuv platformasi sifatida qabul qilingan, ammo bir necha muvaffaqiyatsiz urinishlardan so'ng startap yangi yo'nalish topdi va jahonning eng yirik videoxostingga aylandi hamda global media makonini tubdan o'zgartirdi.

Bunday keyslar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatsizlikni mag'lubiyat sifatida emas, balki o'rganish, o'sish va professional shakllanish imkoniyati sifatida ko'rib chiqish lozim. Shu ma'noda, har bir xato tajribaga aylanadi degan fikr tadbirkorlik ko'nikmaning mohiyatini aks ettiradi va o'quvchilarni mas'uliyatni qabul qilishga, xatarlarni ko'ra bilishga hamda doimiy ravishda o'z ustida ishlashga tayyorlaydi.

Tadbirkorlik ko'nikma — bu yoshlikdayoq biznes tashkil etish degani emas. Bu imkoniyatlarni ko'ra olish, g'oyalar ilgari surish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va xatolardan xulosa chiqarish qobiliyatidir.